

# **O'QUVCHI YOSHLARDA DIZAYNERLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA O'ZBEK MILLIY KASHTACHILIK SAN'ATINING TUTGAN O'RNI**

**Eshnazarova Mazifa Allanazarovna.**

Qashqadaryo viloyati XTXQTMO hududiy markazi

Tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisi

## **Annotatsiya.**

Ushbu maqolada hozirgi kunda o'quvchi yoshlarni kasb hunarga yo'naltirish, ularning dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirishda milliy qadriyatlarimiz, ya'ni kashtachilik san'atining tutgan o'rni haqida, kashtachilikni o'qitish metodikasining umumiy masalalari, kashtachilik to'garagi mashg'ulotlarini olib borish metodlari, haqida ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Dizaynerlik, badiiy-ijodiy, kashtachilik, dekorativ buyumlar, ko'nikma, tashabbus, ijodiy tasavvurlar.

## **Аннотация.**

В данной статье рассматриваются ориентация молодежи на профессию, наши национальные ценности в развитии у них дизайнерских навыков, роль искусства вышивания, общие вопросы методики обучения вышиванию, кружок вышивания, информация о методике идущий.

**Ключевые слова:** Дизайн, искусство, вышивка, декоративные изделия, умения, инициатива, творческое воображение.

## **Annotation.**

This article deals with the orientation of young people to the profession, our national values in the development of their design skills, the role of the art of embroidery, general issues of teaching methods of embroidery, embroidery circle. The methods of going, information about.

**Keywords:** Design, art, embroidery, decorative items, skill, embroidery, initiative, creative imagination.

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha sohalari kabi ta'lim sohasida ham ulkan ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan maktabdan tashqari ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o'z natijasini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev raisligida 2019 yil 19 mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish maqsadidagi beshta muhim tashabbusda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va kasb tanlashga katta e'tibor qaratildi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim jarayonida o'quvchilarda mustaqil ijodiy ishlashga, ularda izlanishlar olib borish elementlarini shakllarida va kelajakda ularni ongli ravishda to'g'ri kasb tanlashlarida alohida o'rin egallaydi. Shuningdek ularda mas'uliyatni sezish va ularning mehnat faoliyatiga tayyorlash kabi jarayonni rivojlantiradi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim jarayonini o'tkazish nafaqat o'quvchilarga balki o'qituvchilar uchun ham foydalidir. Bunda o'qituvchi o'z o'quvchilarini yaxshiroq bilish, ular bilan muomila qilish hamda doimo zamonaviy fan-texnika yangiliklari bilan tanishtirib borishga harakat qiladi.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda texnologiya darslari va tasviriy san'atning katta ahamiyatini hisobga olib dizaynerlik ijodkorligidan foydalanish o'quvchi shaxsini shakllantirish va rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki, dizaynerlik ijodiy - faoliyat, qandaydir sifat jihatidan yangi, ilgari hech mavjud bo'lmagan yangilikni yaratishdir. Bu faqat ushbu inson emas, balki boshqalar uchun ham nimadir yangi, qimmatli bo'lgan narsani yaratishdir. Bu kabi sub'ektiv qadriyatlarni yaratish jarayonida sinfdan tashqari ishlarning imkoniyatlari juda katta.

Zamonaviy dunyoda sodir bo'layotgan jarayonlarning turli-tumanligi va murakkabligi o'sib kelayotgan shaxsning rivojlanishiga yangi talablar qo'yemoqda. Inson faoliyatining har qanday sohasida ijodkorlik masalalarni hal qilishda ratsional, nostandard yo'llarni izlash, jamiyatning har bir a'zosining

intelлектуал имкониятларини оширish, инсоннинг ijodiy qobiliyatlarini imkon qadar rivojlantirish davrning qat‘iy va dolzarb ehtiyoji bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun, bolalar va o‘smirlarning ijodiy rivojlanishlarining samarali yo‘llarini izlash bugungi kunda pedagogika fani va umuman jamiyatning ijtimoiy ahamiyatli, ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirish muammosi pedagogika va psixologiya fanlari chegarasida yotadi.

Ijodiy tasavvurni faollashtirish - badiiy-ijodiy tafakkur rahbatlantirishning muhim omili. To‘garak ishi amaliyoti ijodiy tasavvurning samaradorligi bir qator sharoitlar xususiyatlariga bog‘liq bo‘lishini ko‘rsatadi:

- I. O‘quvchilarning ijodiy tasavvurlar nazariyasini bilishlari.
- II. Badiiy-ijodiy yaratuvchilikning ijtimoiy ahamiyati, holatini o‘quvchilarga tushuntirib berish.

III. O‘quvchilarning ehtiyoj sifatidagi psixologik kayfiyatları.

IV. Olgan bilim, ko‘nikma va malakalaridan o‘z amaliyotlarida foydalanishga yo‘naltirish hamda:

- 1) badiiy ijodkorlik ehtiyojlarining mavjudligi;
- 2) yangilikka intilishi;
- 3) o‘zini ifoda etishga intilishi;
- 4) musobaqalashish holati;
- 5) bilimlari darajasi. qiziqishlari, layoqati.

Dizayn ijodkorlik sohasi sifatida yangi yo‘nalish bo‘lmsasda, respublikamiz ta‘lim muassasalarida o‘quvchilarda dizaynerlik ijodkorligini rivojlantirish borasida tajribalar yetarli emas. Shu ma’noda dizayn sohasiga oid tarixiy-nazariy ma‘lumotlar o‘quvchilarda dizaynerlik ijodkorligini rivojlantirish tizimida muhim o‘rin tutadi. Shu yo‘sinda milliy liboslar dizaynida kashtachilik san’ati to‘garagini tashkil etish va o‘rgatish maqsadga muvofiq.

Kashtachilik kasbi ham sharafli kasblardan biri hisoblanadi. Shuningdek, kashtachilik kasbi sirlarini, ularni har tomonlama tarbiyalashni o‘rgatishda zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilish yo‘l-yo‘riqlarini o‘rgatishdir.

Kashtachilik - qadimiy va ommabop qo‘l mehnati turlaridan hisoblanadi. Qo‘lda kashta tikib bezatilgan kiyim va buyumlarga bo‘lgan qiziqish yildan yilga ortib bormoqda, chunki tabiiy tanlangan ipak yordamida inson kashtachilik hunarini mukammal o‘rgangan bo‘lsa, o‘zining didiga, talabiga mos keladigan turli mavsumlar uchun mo‘ljallangan xilma-xil kiyimlar va buyumlarni bezash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Hunar albatta yoshlikdan o‘rgatiladi. Yurtimizda ko‘pgina o‘quv fanlari amaliy san’at turlariga oid hunarlarni o‘rgatish bilan bir qatorda kashta tikish hunarini o‘rgatadigan maktabdan tashqari muassasalar faoliyat yuritmoqda. Bu hunar yosh avlodning mehnatga muxabbat, badiiy did va mahorat, sabrlilik va ijodkorlik tuyg‘ularini shakllantiradi. Kashtachilik to‘garaklari maktablar qoshida hamda maktabdan tashqari o‘quv tarbiya muassasalarida, mahalla qo‘mitalari qoshida tashkil etiladi. Bu to‘garaklarda yoshlar kashtachilik tarixi, tikish uchun kerakli jihozlar va iplarning turlari, ranglarni to‘g‘ri tanlash va ulardan to‘g‘ri foydalanish, tikish uslublari, tikilgan buyumlar va kiyimlarni kerakli o‘lchovda tikish, tikilgan kiyimlarga ishlov berish, ularni asrash kabi malakalarni egallaydilar.

O‘qituvchi ixtiyorida o‘qitishning turli-tuman metodlari mavjud. Agar ko‘nikmani shakllantirish shartlariga rioya qilinsa, o‘qitishning amaliy metodlari o‘quv materialining muvaffaqiyatli egallanishiga yordam beradi, albatta. Kashtachilikni o‘rganish jarayonida nazariy bilimlar beriladi va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Nazariy bilimlar berishda bo‘lajak to‘garak rahbarlariga to‘garakni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslarini ochish, ularga ma’naviy, milliy, mehnat, axloqiy, badiiy tarbiya talablari va uni amalga oshirish yo‘llari o‘rgatiladi. Albatta nazariy bilimlar berishda ilg‘or tajriba manbalaridan foydalanishi zarur. Shuningdek, to‘garak mashg‘ulotlari mavzularini o‘rganishda qo‘llaniladigan texnika vositalari, ko‘rgazma qurollar namoyish etiladi.

Kashtachilik to‘garaklarida ishni to‘g‘ri tashkil qilish - yoshlarimizga ularning bo‘sh vaqtlarini unumli va mazmunli o‘tkazishlariga, kasbga yo‘llashga, ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishlariga, o‘z mehnatlari samarasidan bahramand bo‘lishlariga imkoniyat yaratadi. To‘garaklarda ishlar o‘zlari oila a‘zolari uchun turli buyum va kiyimlarni kashtachilikda bezashni o‘rganish bilan bir qatorda, to‘garaklarda ko‘rgazma materiallari sifatida qo‘llaniladigan chok turlari namunalari, kichik o‘lchamdagisi xil buyumlar va kiyimlar tayyorlaydilar. To‘garaklarda kashtachilikni o‘rgatish jarayonida to‘garak a‘zolariga turli dekorativ buyumlar, uy bezak jihozlari, oyinchoqlarga kiyimlarni kashtachilikda bezashni o‘rgatishga alohida e‘tibor qaratish lozim. Bunday ishni bajarish jarayoni insонning o‘zini kengroq namoyon qila olishiga imkon yaratadi, ijod qilishga, ishni san’at darajasiga ko‘tarishga yo‘naltiradi.

Kashta (fors-toj. - tortilgan, chizilgan) - amaliy bezak sanatining eng qadimiy va keng tarqalgan turi. Kashta



guli (naqshi) qo‘lda (igna, ilmoqli igna, ilmoqli bigiz bilan) yoki popon mashinasida, asosan, mato (bo‘z, chit, satin, shoyi, baxmal, movut va boshqa) va charmga (etik, maxsi, pichoq qini, kamar va boshqa) tikiladi. Matoga tikilgan kashta turlari: palak, so‘zana, kirpech, zardevor, gulkorpa, choyshab, parda, belbog‘ va boshqa badiiy buyumlar, shuningdek, do‘ppi, ko‘ylakka kashta tikiladi. Kashtachilikning rivojlanishi

Kashtachilik – kashta tikish kasbi, amaliy bezak san’atining qadimiy sohalaridan biri bo‘lib, u xalqning o‘z turmushini go‘zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashtachilik san’ati nafaqat bizning mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. Arxeologlarning IX –XII asrlarga oid

topilmalari Qadimgi Rus davrida ham kashta bo‘lganidan dalolat beradi. Bu topilmalar bezak gullari zar iplardan tikilgan kiyim parchalaridir. Qadim zamonlarda uy – ro‘zg‘or buyumlarini, atoqli kishilarning kiyimlarini kashta tikib bezashgan.

Amaliy san’atning ganchkorlik, yog‘och va metall o‘ymakorligi, va naqqoshlik yo‘nalishlarida uchraydigan islimiyligul va naqshlar kashtachilikda ham ko‘p qo‘llaniladi. Odatda chizmachi naqqoshlar amaliy bezak san’atining turli sohalariga, shu qatorda kashtachilik san’atiga ham dekorativ naqshlarni chizib bergenlar, kashtado‘zlar esa badiiy buyumlarni mahorat bilan tikishgan.

Naqshni tuzishda geometrik shakllar (uchburchak, kvadrat, yulduzcha, aylana va h.)dan, shuningdek to‘lqinsimon, siniq chiziqlar, spirallardan, o‘simgilik motivlari (barglar, gullar, shohlar, daraxtlar)dan , jonivorlar dunyosi (hasharotlar, qushlar, baliqlar va h.) tasviridan, shuningdek, umumlashgan odam qiyofasidan foydalanish mumkin. Ba’zan naqshda geometrik shakllar bilan tabiat motivlari qo‘shilgan bo‘ladi. Naqshning hamma qismlari mutanosib bo‘lishi kerak.

O‘zbek kashtachilgida bezak buyum turlari

O‘rta Osiyoda kashtachilik san’ati juda keng tarqalgan bo‘lib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi kerak bo‘lgan. Shuning uchun har bir oila o‘zi uchun kirpech, so‘zana, dorpech, oynaxalta, choyzalta va boshqalarini o‘zi tayyorlagan.

Joynamoz – erga solib ustida namoz o‘qiydigan to‘shama. Joynamozni Islom diniga e’tiqod qiluvchilar ishlatishadi. U ibodat vaqtida kishini bu dunyodan ajratuvchi omil deb tasavvur qilinadi. Joynamoz har xil matodan tayyorlanib, uning uch tomoni mehrob shaklida tikilgan bo‘ladi.

Undan machit, madrasa va uylarda foydalaniladi. Joynamozlar turli o‘lchamda bo‘ladi va kashtachilikda ham juda chiroyli qilib bezatiladi.

Zardevor – uy jihizi bo‘lib, u sidirg‘a shoyi baxmal, satinka kashta tikib bezatilgan badiiy buyumdir. Zardevor o‘zbek hamda tojiklarda kelinlarning uyiga, shiftiga yoki devoriga ilib qo‘yiladi. U zar ip yoki ipakli bo‘lib, eni 40-70 sm., uzunligi mo‘ljallangan uyning devoriga moslab tikiladi.

Palak – devorga ilinadigan eng yirik, eng qimmat bezak buyumlaridan biridir. Palakda osmon va to‘lin oy aks ettiriladi. Uni qadimdan oq yoki malla bo‘zga kashta tikib tayyorlaganlar. U so‘zanadan gullarining yirikligi, zaminiga ham kashta qoplanishi bilan farq qiladi. Palakning o‘rtasida yirik oy tasviri qizil qirmizi,

pushti ipak bilan tikiladi va atrofiga juda chiroyli qilib o'simliksimon naqshlar tikiladi. Naqshlar ichida ko'pincha bodom, qalampir elementlari qo'llaniladi. Palakda to 40-tagacha oyni tasvirlash mumkin bo'lgan. Shu sababli oyning soniga qarab, olti oyli palak, o'n iki oyli palak, hattoki katta uylar uchun qirq oyli palaklar tikilgan. Oylar turli xil ranglar bilan bir nacha xil tasvirlangan. Mahoratlari kashtado'zlar oyni ajoyib naqshlar bilan bezab, o'z mahoratlarini namoyon etganlar. Agar oyning ichi bir xil rangda tikilgan bo'lsa, uni oypalak, agar naqshli bo'lsa gulpalak deb nomlangan. Keyingi vaqtarda palakning qo'l mehnati ko'p bo'lganligi sababli, so'zana deyila boshladi.

Kirpech – kirpo'sh, tokchaga taxlab qo'yilgan kiyim-kechak ustidan yoki devorni vertikal bo'sh joylariga ilib, uyni bezatib turishi uchun ishlatalidigan badiiy buyumdir. U kiyim-kechakni changdan saqlash va uyni bezash uchun xizmat qilgan. Odatda palakka o'xshatib tikilgani uchun, kirpechpalak deb ham yuritiladi.

So'zana – forscha so'zani deb ham yuritilib, igna bilan tikilgan, degan ma'noni anglatadi. So'zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo'lib, xonani bezatish uchun devorga ilib qo'yiladi. U satin, baxmal, shoyi va boshqa matolarga kashta tikib tayyorlanadi. So'zana o'ziga xos badiiy ko'rinishga ega. Matoning rangidan ustalarimiz kashta zamini sifatida foydalanadilar, shuning uchun palakdan farq qiladi. So'zana har bir xonadonda bo'lgan, chunki har bir bo'lajak kelin, o'zi uchun so'zana tayyorlagan. So'zana kelinlarning sepi hisoblangan. Kambag'al oilalarda so'zana malla, oq bo'zdan, badavlatroq oilalarda esa shoyi va baxmaldan tikilgan. So'zana tikishda kompozitsion joylashgan o'simliksimon naqshlardan foydalilanadi. So'zana o'rtasida ko'pincha doirasimo gul tikilib, atrofi guldor islimiy naqshlar bilan bezatiladi. So'zana tikish juda qadimdan rivojlangan bo'lib, XIX asrgacha bo'lgan so'zanalar saqlanib qolmagan. Faqat XIX asrga oid Samarqand, Buxoro, Nurota, Farg'ona va boshqa joylardagi so'zana turlaridan namunalar bor. San'atning bu turi ayniqsa O'zbekiston va Tojikiston territoriyasida qadimdan keng tarqalgan.

Choyshab – forscha-tojikcha ro'yjo – tun chodiri degan ma'noni bildiradi. Choyshab asosan taxmonga tutish va to'shak ustidan yopish uchun xizmat qiladi. To'shak ustidan yoziladigan choyshab kam kashtali, taxmonga tutiladigani esa satin, shoyi, baxmal va boshqalardan tikiladi. Hozirgi vaqtida choyshabdan so'zana kabi badiiy buyum sifatida ham foydalanim kelinmoqda.

Do'ppi – O'zbekistonda keng tarqalgan engil bosh kiyim. Do'ppi kiyish dastlab Eronda va turkiy xalqlar o'rtasida, Rossiya esa XII asrda odad bo'lgan. Asrlar davomida do'ppining turli xillari vujudga kelgan.



Baxmalga, satingga, sidirg'a shoyiga ip, ipak va zar bilan do'ppi gullari tikilgan. Toshkent, Chust, Buxoro, Samarqand, Boysun, Shaxrisabz do'ppilari mashhur bo'lib, ular o'ziga xosdir. Do'ppilarning juda ko'p xillari:" Iroqi, Chust do'ppi, Gilam do'ppi, Chakma to'r, Qizil gul, Piltado'zi, Zardo'ppi, To'ldirma" deb nomlanadigan milliy do'ppilar mavjud. Har bir do'ppi yaratilish uslubiga ega bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi. O'zbekistonda ommaviy bosh kiyimi asosan 3 xil shaklga ega bo'ladi. "Kuloh", "Araqchin", "Tusdo'ppi".

Kashtachilikda bezatish alohida va muhim rol o'ynaydi. Kashtachi – san'atkorning badiiy didi, bezaklarini o'z o'rniiga, joyiga topib, biri ikkinchisiga shaklan bir bo'lsada, bezaklari ranglari boshqacha bo'lgan tasvirlarni yaratishi, kashtaning ta'sirchanligini oshiradi.

Kashtachi bezaklarini matoga joylashtirar ekan, gazlamani haddan ziyod bezab ham tashlamaydi, bekorchi, bo'sh o'rinni ham qoldirmaydi. Fon albatta, naqsh va bezakka kashta ta'sir qiladi. Shu sababli kashta fonining oq malla va boshqa rangda bo'lishiga e'tibor bermog'i, fonining o'zi ham

qo'shimcha bezak ekanligini diqqat markazida bo'lishini talab qiladi. So'zanada gullar qat'iy o'lchamli, geometrik simmetrik emas, ular erkin o'lchamsiz, taxminiy ochiladi. Shu sababli bunday dekorativ kashtalar yaqinda uyg'unlashib, butun bir yaxshilikni vujudga keltiradi. Bunda har bir gul, o'simliksimon chiziqlarning erkin bir – biriga bog'lanishi umumiylilikni hosil qiladi.

O'zbek kashtalarining kompozitsiyasi turli hududlarda turlicha bo'lsada, ularning bir – biriga yaqinligini gullarining xarakteri va rang berishida umumiyligi prinsiplarni aniqlashga imkon tug'iladi. Buxoro kashtachiligidagi kompozitsiyani muhim va asosiy qismini tashkil qiladi. Umuman kompozitsiyani bir necha guruhga bo'lib o'rgansa bo'ladi:

I-guruh – Markaziy gul sathi kompozitsiyasi

II- guruh – CHEkka hoshiya kompozitsiyasi

III- guruh – O'simliksimon kompozitsiya

IV- guruh – Makraziy gul va unga yondosh to'rtburchakni bitiruvchi kompozitsiya

V- guruh Markaziy gul davrsasi kvadratsimon rombsimon va ko'p burchakli to'rsimon kompozitsiyadir.

Yuqorida ko'rsatilgan kompozitsiyalar tikiladigan kashtaning qanday maqsadga foydalanishga, ishlatishtga bog'liq. Kashtachini gulni tasvirlashda ipak bilan gulning kashtaligini berish emas, eng muhimi, dekorativ san'ati asariga rang berish, ularga jilo berish ko'proq qiziqtiradi.

To'garak a'zolarining bajargan ishlari to'garak ishining hisobot materiali bo'ladi. Bu ishlar bilan turli xil bellashuv va ko'rgazmalarda ishtirot etiladi. Ko'rgazmalar, bellashuvlarning tashkil etilishi esa, o'z navbatida to'garaklarga bo'lgan e'tiborni, kashtachilikga va boshqa hunarga bo'lgan qiziqishni keng jamoatchilik diqqatini jalb etish, to'garaklarga yangi-yangi o'quvchilarning kelishi uchun imkon yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2019 yil 19 mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish maqsadida o'tkazilgan video selektor yig'ilishi yuzasidan hujjatlar jamlanmasi.
2. Maktabdan tashqari Ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi vazirining 2015 yil 31 martdagи 7mh-sonli buyrug'i.
3. Obloberdiyeva Z.“Buxoro kashtachilik san'ati”. Buxoro-2002 y.
4. Sharqona milliy liboslar ensiklopediyasi. Toshkent. 1997.
5. Bulatov S. “Xalq amaliy bezak san'ati”. 1991 yil. T.
6. K.G'ulomov “Ashyolarga badiiy ishlov berish” T.2004y
7. Ziyone.uz.